



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MA'NAVY TARBIYA ISHLARINI AMALGA OSHIRISH

Azizova Ziroatxon Baxodirovna

Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

Nabijonova Gulzora, Toshtemirova Nilufarxon

Qo`qon davlat pedagogika instituti talabalari

Jahonda globallashuv sharoiti kechayotgan bir davrda ma'naviy tarbiya masalasi har-qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aksar davlatlarda ta'limning tarbiyaviy ahamiyati susaymoqda. Bunday sharoitda ma'naviy tarbiyani amalga oshirida maktabgacha ta'lim yoshidan boshlashga ehtiyoj kuchaymoqda.

Dunyo davlatlar ilg`or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma'naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, maktabgacha yoshga oid tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilgandir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag`ishlangan videoselektor yig`ilishida Prezidentimiz "Biz yangi O`zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat" deb ta'kidlab o`tdilar. Yig`ilishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari belgilandi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 5040 – son qarorida oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviylikini ta'minlash, targ`ibot-tashviqot va tarbiya yo`nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish belgilandi.

Ma'naviy tarbiya yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, guruh, jamiyat, millatda jismoniy barqarorlik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayoni.

Ma'naviy – axloqiy tarbiya bu bolaning shaxsini jamiyatning maqsadlari va g`oyalariga mos ravishda rivojlanishi bilan pedagogik ta'sir qilish usuli hisoblanadi. Shuni ta'kidlamochimizki, maktabgacha pedagogika sohasida qilingan ilmiy ishlarning ko`pchiligi axloqiy tarbiyaga yo'naltirilgan, shu sababli axloqiy va ma'naviy tarbiya o`rtasida bir qator chalkashliklar bo`lishi mumkin.

Professor M. Imomnazarov bu farqlarga to`htalib quyidagilarni ta'kidlaydi. Axloq ma'naviyatga nisbatan surat tashqi jihat bo`lsa, odob o`z navbatida axloqiy fazilatlarining yuzaga chiqarishdir. Shu sababli insonni anglab yetish odobdan axloqqa, axloqdan ma'naviyatga qarab teranglashib boradi.

Ammo shu bilan birga axloq odobga nisbatan ma'naviyat esa axloqqa nisbatan keng qamrovli mohiyatdir.

Ma'lumki, maktabgacha yosh davri ijtimoiy ta'sirlarga nisbatan sezuvchanlikning ortishi bilan



Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain)

tavsiflanadi. Bola bu dunyoga kelib, hamma narsani: muloqot yo'llari, xatti-harakatlari, munosabatlarini o'ziga singdiradi, shu maqsadda o'z kuzatishlari, empirik xulosalari, kattalarga taqlid qilishlaridan foydalanadi va ularni o'zida sinaydi, oxir-oqibat inson jamiyatda hayotning asosiy normalarini o'zlashtirish mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida beriladigan ma'naviy tarbiya ta'limning keyingi bosqichlarida yoshlarni ma'naviy kamolatiga zamin hozirlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nafaqat bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga, balki bola shaxsini – xarakteri, irodasi, qobiliyatlari va qiziqishlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bola shaxsining rivojlanish darajasini ko'rsatadigan mezonlardan biri. Bolaga ta'lim-tarbiya berish jarayonida shakllanadigan axloqiy normalar, e'tiqodlar, maqsadlar, histuyg'ular, bolaning xulq-atvorida namoyon bo'ladigan ma'naviy qarashlar, shuningdek bilimlar, e'tiqodlar va xulq-atvorning uyg'unligi bilan belgilanadi.

Bolalar hissiyotlidir, shuning uchun ta'lim usullari nafaqat aniq, balki qiziqarli bo'lishi kerak. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'zini tutish madaniyatini tarbiyalashda, eslatmalarni keraksiz og'zaki tuzatish bo'lmasligi kerak.

Ta'lim samaradorligi bolalarni to'g'ri ish qilishga undovchi maxsus vaziyatlar yaratish orqali ta'minlanadi. Bolalar o'rtasida insonparvarlik tamoyillariga asoslangan to'g'ri munosabatlarni tarbiyalash bu yosh guruhi bilan ishlashda tarbiyachining alohida vazifasidir. Bolalar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirish bolalarning o'zaro xayrixohligi, ularning maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bog'liqligi va tengdoshlari va o'z xatti-harakatlarini baholay olishlariga asoslanadi. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining ma'naviy-axloqiy sohasini shakllantirishda tarbiyachi va uning metodik mahorati katta rol o'ynaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, ma'naviy fazilatlarini shakllantirish ishlari juda murakkab va uzoq davom yetadigan jarayondir.

Bunda tarbiyachi pedagogdan doimiy sa'y-harakatlari, bolalarning his-tuyg'ulari va ongini shakllantirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirishni talab yetadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning ma'naviyatining shakllantirishning mazmuni, shakli, metod va vositalarini aniqlash, uning mazmunini takomillashtirish, ma'naviy ma'rifiy ishlarni modernizatsiyalash maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga biz avvalo yuksak ma'naviy fazilatlar bo'lmish: adolat, andisha, ahillik, bag'rikenglik, burch, vatanparvarlik, do'stlik, jamoaviylik, jasorat, intizom, iroda, kamtarlik, majburiyat, mehnatsevarlik, mehribonlik, muomala odobi, milliy iftixor, rahmdillik, rostgo'ylik, hurmat kabilarni o'rgatishimiz kerak. Shu bilan birga ma'naviy illatlar bo'lmish berahimlik, bezorilik, beparvolik, beodoblik, millatchilik, yolg'onchilik, yovuzlik, nodonlik, irodasizlik, hurmatsizlik, dangasalik, hasadgo'ylik, o'g'irlik, qat'iyatsizlik, uyatsizlik kabi illatlarni nima ekanligi bolalarga tushintirib bu ishlarni qilishdan qaytarishga qaratilgan mashg'ulotlarni amalga oshirish darkor.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda tarbiyalanuvchilar ma'naviyatini shakllantirish bosqichlarini ishlab chiqish zarur bo'lib fikrimizcha bu jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- tarbiyalanuvchilar ma'naviyatining shakllanganlik darajasini o'rganish.
- tarbiyalanuvchilar ma'naviyatini shakllantirish muommosining mazmunini aniqlash, shakl, metod va vositalarini tanlash.
- tarbiyalanuvchilar ma'naviyatini shakllantirish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan pedagogic jarayonni amalga oshirish. Bolalarni ma'naviy tarbiyalash usullarini tanlash oldingi bolalik davrining har bir bosqichidagi asosiy vazifalarni hisobga olgan holda, ularning yoshiga hos xususiyatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:



- ✓ Madaniy xulq-atvor malakalari, kompetensiyalarini rivojlantirish,
- ✓ Insonparvarlik ko`nikmalariga o`rgatish;
- ✓ Bolalar va kattalar o`rtasidagi insoniy munosabatlarni o`rgatish;
- ✓ Jamoaviylik tarbiyasi, bolalar o`rtasida jamoaviylik ruhi va munosabatlarni o`rgatish;
- ✓ Vatanga muhabbatni qanday namoyon qilishni o`rgatish;
- ✓ Boshqa millat vakillariga hurmat va mehr-muhabbat uyg`otish;
- ✓ Mehnatsevarlikning barqaror istagi va qobiliyatini shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma`naviy-axloqiy tarbiyasining mazmuni va usullari ushbu yoshdagi bolalarning xususiyatlariga mos kelishi va eng yaqin axloqiy rivojlanish zonasini ta`minlash kerak. Agar to`rt yoshli bola tengdoshlaridan yordam berishni asosan tarbiyachining maslahati ta`siri, topshirig`I bilan bajarsa, besh yoshlilar bu yordamni o`z ixtiyori, farosati bilan ko`rsata olishi kerak. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar ma`naviyatini shakllantirishda quyidagi tamoyillarga amal qilish talab etiladi: yosh xususiyatini inobatga olish, muammolik va natijani oldindan ko`ra bilish, tizimlilik, hamkorlik, insonparvarlik, nazariyaning amaliyot bilan bog`liqligi, tarbiya jarayonida milliy pedagogika asoslarida to`g`ri foydalanish, ta`lim tarbiya jarayoniga ilg`or pedagogik texnologiyalarni joriy etish.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga ma`naviy fazilatlarni dastlabki kurtaklari axloq-odob qoidalar va milliy o`zlik to`g`risidagi dastlabki tassavvurlarini shakllantirishdan boshlanishi kerak deb o`ylaymiz. Tarbiyalanuvchilarning sog`lom va ma`naviy barkamol bo`lib voyaga yetishida pedagogik jarayon hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki muassasada ta`lim va tarbiya jarayonida bola ma`naviyatini shakllantirishga imkon beradi. MTTlarda tarbiyalanuvchilar ma`naviyatini shakllantirishda quyidagilarga e`tibor qaratish lozim deb o`ylaymiz:

1. O`zbek xalq ertaklari, dostonlarda ulug`langan ma`naviy fazilatlarni targ`ib qilish;
2. O`zbek xalqining uzoq tarixga ega an`analari, urf odatlari namunalaridan foydalanish;
3. Tarbiyalanuvchilar ma`naviyatini shakllantirishda xalq pedagogikasi, xalq hunarmandchiligi, amaliy san`at, musiqa va teatr san`atidan foydalanish;
4. MTTlarda tashkil etiladigan ma`naviy-ma`rifiy tadbirlar imkoniyatlaridan keng foydalanish;
5. Tarbiyalanuvchilar ma`naviy fazilatlarini shakllantirishda oilaning hamkorligi va ma`suliyatini oshirish.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, MTTlarida bolalar tarbiyasi jamiyatning bo`lajak fuqarolari dunyoqarashini belgilashda muhim o`rin tutadi. Bolajonlarimiz fazilatlarini har taraflama rivojlantirish, birinchi navbatda ularni mustaqil fikrlovchi, faol fuqaro etib tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining samarasini belgilovchi muhim pedagogik masaladir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Xalq so`zi" gazetasi. 2021 y. 20 yanvar №13-son. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi —Ma`naviy-ma`rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risidagi PQ 5040 son qarori www.lex.uz
2. "Ma`naviyat" asosiy tushunchalar izohli lug`ati. G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.:2010. 318 b
3. A.Qodirov, M.Quronov "Baxtli bola ma`naviyati" Toshkent-2018. 43.b
4. M.Imomnazarov «Milliy ma`naviyatimiz nazariyasiga chizgilar». T.:98 «Sharq» 84.b

**Innovative Society: Problems, Analysis
and Development Prospects (Spain)**

5. O`zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan davlat talablari Ro`yxatdan o`tish. 03.07.2018 yildagi 3032-son.
6. Anvarovna, Sultonova Nurxon. "MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOYIHALASHTIRISHNING AFZALLIKLARI (TRIZ TEXNOLOGIYALARI)." " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM. 2023.
7. Anvarovna, Sultonova Nurxon. "O`QUVCHILARDA XULQ-ATVOR SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG`ZAKI IJODI VOSITALARIDAN FOYDALANISH." *Role of Exact and Natural Sciences During the Renaissance III* (2023): 94-98.
8. Anvarovna, Sultonova Nurxon, and Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna. "PROBLEMS OF WORKING WITH PARENTS OF CHILDREN NOT INVOLVED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.1
9. Anvarovna, Sultonova Nurxon. "Some Aspects of the Maria Montessori Method in the Education of Preschool Children." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.6 (2022): 169-173. (2023).
10. Bakhodirovna, Halkuzieva Dilnoza. "Personality-Oriented Education in the Development of Creative Activities of Future Educators." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)* 1.8 (2023): 432-435.
11. Султонова, Нурхон Анваровна. "Теоретические основы подготовки детей в современных условиях к социальной жизни в семье." *Scientific progress* 1.6 (2021): 631-635.
12. Султонова, Нурхон. "ОРГАНИЗАЦИЯ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДОШКОЛЬНИКОВ В РАЗВИВАЮЩИХ ЦЕНТРАХ." *Interpretation and researches* 1.1 (2023).
13. F.Qodirova Maktabgacha pedagogika-Toshkent 2019 yil